

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**ANDIJON VILOYATI XALQ TA‘LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**MEDATOV A.A., KOMILJONOV N.A, AHMEDOVA Sh.B.,
ABDUVALIYEVA M.A.**

KOMPYUTERLARNING ARIFMETIK VA MANTIQUIY ASOSLARI

(Talabalarning laboratoriya ishlarini tashkil etish uchun uslubiy qo‘llanma)



ANDIJON - 2017

Medatov A.A., Komiljonov N.A., Ahmedova Sh.B., Abduvaliyeva M.A. Kompyuterlarning arifmetik va mantiqiy asoslari/Talabalarning laboratoriya ishlarini tashkil etish uchun uslubiy qo'llanma. – Andijon, ADU, 2017. – 60 b.

Uslubiy qo'llanma OTM da bakalavr akademik daraja beruvchi 5111000 - Kasb ta'limi (5330200 - Informatika va axborot texnologiyalari), 5110700 - Informatika o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari asosida laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha zarur bo'lgan minimum bilimlar va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanmada "Kompyuterlarning arifmetik asoslari" mavzusi bo'yicha misollar yechimlaridan namunalar va mustaqil yechish uchun mashqlar ko'rsatilgan. Jumladan, bir sanoq sistemasidan boshqa asosli sanoq sistemasiga o'tish, sanoq sistemalari ustida amallar, to'g'ri, teskari va qo'shimcha kodlar va ular ustida amallar ko'rib chiqilgan. Uslubiy qo'llanmadan bevosita o'quv jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan Informatika fani o'qituvchilari, AL va KHK talabalari ham foydali bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz.

Muxarrir:

Mahkamov M.K. – texnika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Rasulov A.M.– fizika-matematika fanlari doktori,

Abduvoxidov M.K.– ADU informatika kafedrası katta o'qituvchisi.

©Uslubiy qo'llanma Andijon davlat universiteti ilmiy kengashada chop etish uchun tavsiya qilingan (- yig'ilish bayonnomasi, 2016 yil, - avgust).

1. Sanoq sistemalari haqida umumiy tushunchalar

Har qanday kompyuter axborotni saqlash, uzatish, qayta ishlashga mo'ljallangan. Bunday amallarni bajarish uchun kompyuterga kiritilgan ma'lumotlar qandaydir usulda tasvirlanishi kerak bo'ladi. Ma'lumotlarni tasvirlashda foydalanuvchi yoki kompyuter tomonidan uni qayta ishlash uchun qulay shaklga keltirish tushuniladi. Ma'lumotlardan foydalanish va qayta ishlash nuqtai nazaridan qaraganda ularni tashqi va ichki tasvirlanishga ajratiladi.

Ma'lumotlarni tashqi tasvirlanishida asosan foydalanuvchilar ko'zda tutilgan bo'lib, ma'lumotlar fayllar ko'rinishida saqlanadi. Ma'lumotlarni saqlanishining eng sodda ko'rinishi:

- haqiqiy va butun sonlar (sonli ma'lumotlar);
- belgilar ketma-ketligi (matnli ma'lumotlar);
- tasvirlar (grafiklar, rasmlar, sxemalar, fototasvirlar);
- tovush va videolavhalar (tovush va videotasvirlar).

Ma'lumotlarni ichki tasvirlanishi kompyuterning turli qurilmalari orasidagi signallar almashinuvining fizik prinsiplari asosida aniqlanadi. Masalan, xotiraning tashkil qilinishi prinsiplari, kompyuter ishlashining mantiqiy asoslari va boshqalar.

Kompyuter elektron-raqamli qurilmidir. Elektron qurilma deyilishiga sabab, har qanday ma'lumot kompyuterda elektr signallari orqali qayta ishlanadi. Raqamli deyilishiga sabab har qanday ma'lumot sonlar yordamida tasvirlanadi. Aniqroq aytganda har qanday ma'lumot kompyuterda ikkita butun son birlar va nollar yordamida tasvirlanadi va qayta ishlanadi. SHuning uchun ma'lumotlarni bunday tasvirlanishi ikkili formada tasvirlanish deb qabul qilingan.

Sanoq sistemalari ma'lumotlarni kompyuterda saqlanishi va qayta ishlanishidagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Sonlarni ma'lum sondagi raqamlar, belgilar orqali tasvirlash usullari va qoidalari majmuasiga sanoq sistemasi deb ataladi.

Sanoq sistemalarini shartli ravishda pozitsion, nopozitsion sanoq sistemalari guruhga ajratish mumkin.

Nopozitsion sanoq sistemasida, sonning qiymati uning egallab turgan o'rniga bog'liq emas. Nopozitsion sanoq sistemasiga rim sanoq sistemasini misol qilib olish mumkin. Bu sanoq sistemasi sanlar ustida amallar bajarish va sonlarni ifodalashda qulay emas, sonlarni tasvirlash katta, beso'naqaydir. Masalan, XXI sonida X belgisi, o'zining qaysi pozitsiyada joylashganiga qaramasdan u o'nlik sanoq sistemasidagi 10 qiymatini anglatadi.

Rim raqamlari	I	V	X	L	C	D	M
Qiymati	1	5	10	50	100	500	1000

Ushbu sanoq sistemasida sonlarni yozish qoidasi quyidagicha:

- agar chap tomondagi raqam o'ng tomondagi raqamda kichik bo'lsa ayriladi (VL = 45, chunki $V < L$ bo'lganligi uchun $50 - 5 = 45$);

- agar o'ng tomondagi raqam chap tomondagi raqamdan kichik bo'lsa, bu raqamlar qo'shiladi ($VI=6$, chunki $V>I$ bo'lganligi uchun $5+1=6$);

- bu sanoq sistemada bitta raqamni to'rt marta ketma-ket yozilmaydi.

Masalan, 1974 soni rim sanoq sistemasida MCMLXXIV ($M - 1000$, $CM - 900$, $LXX - 70$, $IV - 4$) ko'rinishida yoziladi.

Umuman olganda nopozitsion sanoq sistemasida sonlarni tasvirlash noqulay bo'lib ular ustida arifmetik amallarni bajarish ko'p vaqt talab qiladi.

Pozitsion sanoq sistemasida har bir raqam o'zining to'rgan o'rniga qarab turli qiymatga ega bo'ladi. SHuning uchun bunday sanoq sistemi pozitsion sanoq sistemi deyiladi.

Pozitsion sanoq sistemi alfaviti shu sanoq sistemasida sonlarni tasvirlash uchun zarur bo'lgan tartiblangan raqam (belgi)lar ($a_0, a_1, \dots, a_n$) dan iborat. Alfavitdagi raqamlar soni q shu sanoq sistemasining asosi deyiladi.

Biz kundalik hayotimizda ishlatib keladigan sanoq sistemi o'nli sanoq sistemi deyiladi. O'nlik sanoq sistemi Xindistonda kashf etilgan bo'lib, keyinchalik u arablar orqali yevropaga tarqalgan. Uning alfaviti $\{0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}$ dan iborat bo'lib, o'nta raqamdan tashkil topgan. Sanoq sistemasining asosi esa 10 ga teng.

Yuqorida aytilganidek, pozitsion sanoq sistemasida har bir raqam o'zining raqamlari joylashgan pozitsiyasiga, ya'ni o'rniga o'rniga qarab ma'lum qiymatni aniqlaydi. Masalan, o'nli sanoq sistemasidagi 4444 sonida 4 raqami to'rt marta uchraydi va o'ngdan chapdan o'ngga qarab birinchisi to'rtta birlikni, ikkinchisi to'rtta o'nlikni, uchinchisi to'rtta yuzlikni va to'rtinchisi esa to'rtta minglikni ifodalaydi.

Sonlarni yozish uchun har bir sanoq sistemasida o'ziga xos turli belgilar to'plamidan foydalaniladi. Bunday belgi, raqamlar to'plami sanoq sistemasining alfaviti deyiladi. Foydalanilgan alfavitdagi belgilar soni, sanoq sistemasini harakterlovchi asosiy kattaliklardir. Sanoq sistemasida foydalaniladigan belgilar soni sanoq sistemasining asosini tashkil etadi. Berilgan sanoq sistemasida sonlarni yozishdagi foydalanilgan belgilar soniga qarab, o'nlik, ikkilik, sakkizlik, o'n oltilik va boshqa sanoq sistemalarni kiritish mumkin.

Odatda sanoq sistemasining alfaviti sifatida ketma-ket keluvchi 0 dan $(q - 1)$ gacha bo'lgan butun sonlar olinadi. Sanoq sistemasining alfavitida 10 ta arab raqamlari yetishmasa, raqamlarni ifodalash uchun harflardan foydalaniladi. Hisoblash texnikasida 2 lik, 8 lik, 16 lik sanoq sistemalari keng foydalanilganligi uchun biz ham asosan shu sanoq sistemalarida ish olib boramiz. Odatda sonlarni qaysi sanoq sistemasiga mansubligi ularning quyi indeksida ko'rsatilgan son bilan farqlanadi. Masalan, 568_{10} – o'nli sanoq sistemasidagi 568 soni, $A97_{16}$ – o'n olti sanoq sistemasidagi A97 soni va h.k. bildiradi.

1-jadval

<i>Sanoq sistemi</i>	<i>Asosi</i>	<i>Sanoq sistemasining alfaviti</i>
Ikkili	2	0, 1
Sakkizli	8	0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
O'nli	10	0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

O'n oltili	16	0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B, C, D, E, F
------------	----	--

Masalan, biz biladigan 10 asosli sanoq sistemasi, shuningdek, o'rta maktab informatika kursida ko'rib o'tilgan 2 lik, 8 lik, 16 lik sanoq sistemalari pozitsion sanoq sistemasiga misol bo'la oladi.

Amerika qit'asida 20 lik sanoq sistemasidan foydalanilgan. Qadimgi Xitoyda, Afrika xalqlari orasida beshlik sanoq sistemasi keng qo'llanilgan.

Pozitsion sanoq sistemalari uchun quyidagi

$$A_q = a_n q_n + a_{n-1} q_{n-1} + \dots + a_1 q_1 + a_0 q_0 + a_{-1} q_{-1} + a_{-2} q_{-2} + \dots + a_{-m} q_{-m} \quad (1) \text{ tenglik o'rinli.}$$

Bunda: A_q ($A_q = a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0, a_{-1} a_{-2} a_{-m}$) q sanoq sistemasida yozilgan ixtiyoriy son;

a_i – sonning raqamlari ($i = n, n-1, \dots, 1, 0, -1, -2, -m$ va $0 \leq a_i \leq q-1$);

$n+1$ – butun razryadlar soni;

m – kasr razryadlari soni.

(1) tenglik sonning yoyilgan formasi deyiladi.

Misol. $576,14_{10}$; $1011,11_2$; $561,423_8$, $6SF,B_{16}$ sonlarni yoyilgan formada tasvirlang.

yechish. (1) ga asosan:

$$576,14_{10} = 5 \times 10^2 + 7 \times 10^1 + 6 \times 10^0 + 1 \times 10^{-1} + 4 \times 10^{-2}$$

$$1011,11_2 = 1 \times 2^3 + 0 \times 2^2 + 1 \times 2^1 + 1 \times 2^0 + 1 \times 2^{-1} + 1 \times 2^{-2}$$

$$561,423_8 = 5 \times 8^2 + 6 \times 8^1 + 1 \times 8^0 + 4 \times 8^{-1} + 2 \times 8^{-2} + 3 \times 8^{-3}$$

$$6SF,B_{16} = 6 \times 16^2 + S \times 16^1 + F \times 16^0 + B \times 16^{-1}$$

2. Bir sanoq sistemasidan boshqa sanoq sistemasiga o'tish.

Quyidagi jadvalda o'nlik sanoq sistemasida 0 dan 16 gacha bo'lgan sonlarni ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalaridagi ko'rinishi keltirilgan.

2-jadval

<i>O'nli sonlar</i> <i>q = 10</i>	<i>Ikkili sonlar</i> <i>q = 2</i>	<i>Sakkizli sonlar</i> <i>q = 8</i>	<i>O'n oltilik sonlar</i> <i>q = 16</i>
0	0000	0	0
1	0001	1	1
2	0010	2	2
3	0011	3	3
4	0100	4	4
5	0101	5	5
6	0110	6	6
7	0111	7	7
8	1000	10	8
9	1001	11	9
10	1010	12	A
11	1011	13	B

12	1100	14	C
13	1101	15	D
14	1110	16	E
15	1111	17	F

Bu jadval bo'yicha pozitsion sanoq sistemasida bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o'tish masalasini ko'rib o'taylik. Masalan: 10 lik sanoq sistemasidagi 13 soniga 8 lik sanoq sistemasida 15 soni mos keladi va u 13 ni 8 ga bo'linganda hosil bo'lgan to'liqsiz bo'linma 1 va qoldiq 5 lardan tashkil topgan. Bu son 13 sonining 8 lik sanoq sistemasidagi qiymatidir.

2.1. O'nli sanoq sistemasidan q asosli sanoq sistemasiga o'tish

O'nli sanoq sistemasidagi berilgan sonni **q** asosli sanoq sistemasiga o'tkazish uchun berilgan sonning butun va kasr qismlari aloxida-aloxida **q** asosli sanoq sistemasiga o'tkaziladi va ularni **q** asosli sanoq sistemasida tasvirlash uchun bir-biridan vergul yoki nuqta orqali ajratib yoziladi.

Berilgan A butun sonni **q** asosli sanoq sistemasiga o'tkazish uchun A soni **q** soniga o'nli sanoq sistemasida bo'linadi. Agar to'liqsiz bo'linma **q** dan katta bo'lsa, bo'lish davom ettiriladi. To'liqsiz bo'linma 0 ga teng bo'lganda bo'lish jarayoni to'xtatiladi. Xosil bo'lgan qoldiqlarning teskari tartibda yozilishi A sonining **q** asosli sanoq sistemasidagi qiymatiga teng bo'ladi.

Misollar.

1. 13_{10} sonini ikki asosli sanoq sistemasiga o'tkazing. $13_{10} = X_2$ hisoblang.

$$\begin{array}{r}
 13 \overline{) 2} \\
 \underline{- 12} 2 \\
 1 \overline{) 6} 2 \\
 \underline{- 6} 3 2 \\
 0 \overline{) 2} 1 \\
 \underline{- 2} 1 \\
 1
 \end{array}$$

$$\begin{array}{l}
 13 = 2 \cdot 6 + 1 \\
 6 = 2 \cdot 3 + 0 \\
 3 = 2 \cdot 1 + 1 \\
 1 = 2 \cdot 0 + 1
 \end{array}$$

Yechish. 13 ni ketma-ket 2 ga bo'lamiz va bo'lishni to'liqsiz bo'linma qismida nol hosil bo'lguncha davom ettiramiz.

O'ngdan chapga tartibida yoki quyidan yuqoriga qarab yozilgan qoldiqlar, ya'ni 1101 soni $X_{10} = 13_{10}$ sonining ikkilik sanoq sistemasidagi ko'rinishi bo'ladi.

Bo'lish jarayonini boshqacha ko'rinishda ham yozish mumkin. Masalan, 13 ni 2 ga bo'lganda to'liqsiz bo'linma 6 ga qoldiq 1 ga teng bo'ladi, ya'ni $13 = 2 \cdot 6 + 1$.

Javob: $13_{10} = 1101_2$

2. 781_{10} sonini sakkiz asosli sanoq sistemasiga o'tkazing. YA'ni $781_{10} = X_8$ ni aniqlang.

$$\begin{array}{l}
 781 = 8 \cdot 97 + 5 \\
 97 = 8 \cdot 12 + 1 \\
 12 = 8 \cdot 1 + 4 \\
 1 = 8 \cdot 0 + 1
 \end{array}$$

Yechish. Bu holda ham yuqoridagi qoidadan foydalanamiz, ya'ni 781 ni 8 ga ketma-ket bo'lib qoldiqlarni quyidan yuqoriga qarab yozib olamiz.

Demak, $781_{10} = 1415_8$ ga teng.

3. $35516_{10} = X_{16}$. X ning qiymatini toping.

$2219 = 16 \cdot 138 + 11$	↑
$138 = 16 \cdot 8 + 10$	
$8 = 16 \cdot 0 + 8$	

Yechish. Yuqoridagi qoidaga asosan $2219_{10} = 8AB_{16}$ ga tengligini aniqlash mumkin.

4. Manfiy sonni bir sanoq sistemadan boshqasiga o'tkazishda avval uning absolyut qiymati o'tkaziladi, so'ngra hosil bo'lgan sonning oldiga minus ishorasi quyiladi, masalan, $-125_{10} = -175_8$

5. Shu paytgacha biz butun sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tkazish bilan shug'ullandik. O'nli kasr ko'rinishidagi sonlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o'tkazish uchun, uning butun qismi yuqorida keltirilgan qoida, ya'ni bo'lish asosida amalga oshiriladi.

Kasr qismini p sanoq sistemasidan q sanoq sistemasiga o'tkazish uchun sonning kasr qismini q ga ketma-ket ko'paytirishdan hosil bo'lgan sonning butun kislmlari ketma-ketligi, berilgan son kasr qismining q sanoq sistemasidagi ko'rinishini hosil qiladi.

1-misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan $X_{10} = 25,205_{10}$ sonini 8 lik sanoq sistemasiga o'tkazilsin.

Yechish. Berilgan sonning butun qismi 25_{10} sakkizlik sanoq sistemasida 41_8 ga teng. Endi kasr qismi $0,205$ ni 8 lik sanoq sistemasiga o'tkazamiz. Buning uchun uni ketma-ket 8 ga ko'paytiramiz va hosil bo'lgan butun qismini chiziqning chap tomoniga o'tkazamiz.

0	205
	8
1	640
	8
5	120
	8
0	960
	8
7	680

$0,205$ ni 8 ga ko'paytirganimizda $1,640$ hosil bo'ladi va uning butun qismini chiziqning chap tomoniga o'tkazamiz. Keyin 640 yana 8 ga ko'paytiramiz va hosil bo'lgan $5,120$ sonining butun qismini chiziqning chap tomoniga o'tkazamiz. Ko'paytirishni shu tarzda davom ettiramiz natijada $0,1507_8$ sonini hosil qilamiz. Jaryon masala shartida berilgan aniqlikkacha davom ettirilishi mumkin. Izlanayotgan sonning butun qismini 41_8 ni hisobga olib, berilgan $X_{10} = 25,205$ sonining 8 lik sanoq sistemasidagi ko'rinishi $X_8 = 41,1508$ ga ega bo'lamiz, ya'ni $25,205_{10} \approx 41,1508_8$.

2-misol. $759,86_{10}$ sonini o'n olti asosli sanoq sistemasiga 5 ta raqam aniqligida o'tkazilsin.

Yechish. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, berilgan sonning butun va kasr qismlari alahida-alohida 16 asosli sanoq sistemasiga o'tkaziladi.

$759 = 16 \cdot 47 + 7$	↑
$47 = 16 \cdot 2 + 15$	
$2 = 16 \cdot 0 + 2$	

Демак,
 $759_{10} = 2F7_{16}$ га тенг.

x	0	86
		16
x	13(D)	76
		16
x	12(C)	16
		16
x	2	56
		16
x	8	96
		16
	15(F)	36
	...	

Соннинг каср қисми учун $3_{10} = D$, $12_{10} = C$, $15_{10} = F$ га тенг бўлганлиги учун $0,86_{10} = DC28F$ га тенг.

Жавоб. $759,86_{10} = 2F7,DC28F_{16}$

Shunday qilib, kasr sonni biror **p** sanoq sistemasidan ikkinchi **q** sanoq sistemasiga o'tkazish uchun kasr qismini **q** sanoq sistemasining asosiga ketma-ket ko'paytirish kerak va butun qismida paydo bo'lgan raqamlar ketma-ketligi berilgan son kasr qismining **q** sanoq sistemasidagi ko'rinishini hosil qiladi. Butun qismi, yuqorida zikr etilganidek, bo'lish yordamida hosil qilinadi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi o'nli sanoq sistemasidagi sonlarni ikki, sakkiz va o'n olti asosli sanoq sistemasiga o'tkazing.

Variantlar	$x_{10} \rightarrow y_2 (y_8)$	$x_{10} \rightarrow y_2 (y_8)$	$x_{10} \rightarrow y_{16}$	$x_{10} \rightarrow y_{16}$
1-variant	56	314,15	98677	658,97
2-variant	61	243,51	68957	632,78
3-variant	57	212,61	78945	735,45
4-variant	89	225,43	65689	651,72
5-variant	84	311,34	98614	720,56
6-variant	96	211,34	93457	834,55
7-variant	78	222,34	88197	909,43
8-variant	65	216,63	73541	722,65
9-variant	62	313,87	67483	826,46
10-variant	58	250,15	71397	645,23
11-variant	66	269,45	91768	871,35
12-variant	59	257,51	81997	659,19
13-variant	64	241,85	74891	819,91
14-variant	63	260,39	80788	734,86
15-variant	54	234,46	69401	833,54
16-variant	55	240,56	72078	745,68
17-variant	81	253,16	82790	873,46
18-variant	73	255,35	81718	822,34
19-variant	76	264,23	83471	647,83
20-variant	74	210,13	68174	745,38
21-variant	67	233,45	66986	854,75
22-variant	51	275,43	75492	809,17
23-variant	66	25673	84733	697,91
24-variant	53	241,71	75924	741,56
25-variant	68	254,89	92436	835,46
26-variant	70	245,35	87132	701,89
27-variant	52	257,24	94318	646,72

28-variant	59	266,78	64895	657,35
29-variant	60	244,55	76489	745,54
30-variant	69	265,15	93345	738,92

2.2. q asosli sanoq sistemasidan o'n asosli sanoq sistemasiga o'tish.

q asosli sanoq sistemasidagi A sonini o'n asosli sanoq sistemasiga o'tkazish uchun (1) dan foydalanamiz, ya'ni $A_q = a_n q_n + a_{n-1} q_{n-1} + \dots + a_1 q_1 + a_0 q_0 + a_{-1} q_{-1} + a_{-2} q_{-2} + \dots + a_{-m} q_{-m}$ ko'phad o'nli sanoq sistemasida hisoblanadi.

Misollar.

1. $1101_2 = X_{10}$ hisoblang.

Yechish. $1101_2 = 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 0 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 = 8 + 4 + 0 + 1 = 13_{10}$.

Javob: $1101_2 = 13_{10}$

2. $1415_8 = X_{10}$ hisoblang.

Yechish. $1415_8 = 1 \cdot 8^3 + 4 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0 = 512 + 256 + 8 + 5 = 781_{10}$

Javob: $1415_8 = 781_{10}$

3. $8AB_{16} = X_{10}$ hisoblang.

Yechish. $8AB_{16} = 8 \cdot 16^2 + A \cdot 16^1 + B \cdot 16^0 = 8 \cdot 256 + 10 \cdot 16 + 11 \cdot 1 = 2048 + 160 + 11 = 2219_{10}$

Javob. $8AB_{16} = 2219_{10}$

4. $1001,1101_2$ sonini o'nli sanoq sistemasiga o'tkazing. Bunda $q=2, n=3, m=4$.

Yechish.

$1001,1101_2 = 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 0 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2} + 0 \cdot 2^{-3} + 1 \cdot 2^{-4} = 8 + 0 + 0 + 1 + 0,5 + 0,25 + 0 + 0,0625 = 9,8125_{10}$.

Javob. $1001,1101_2 = 9,8125_{10}$

5. $125,03_8$ sonini o'nli sistemaga o'tkazing. Bunda $q = 8, n=2, m=2$.

Yechish. $125,03_8 = 1 \cdot 8^2 + 2 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0 + 0 \cdot 8^{-1} + 3 \cdot 8^{-2} = 64 + 16 + 5 + 0 + 0,046875 = 85,046875_{10}$.

Javob. $125,03_8 = 85,046875_{10}$

6. O'n asosli sanoq sistemasiga o'tishni bo'lish amali yordamida ham amalga oshirsa bo'ladi. Masalan, 2-jadval bo'yicha $15_8 = 13_{10}$ ekanligi ma'lum. Endi uni topib ko'raylik, buning uchun o'nlik sanoq sistemasining asosi 10 ning sakkizlik sanoq sistemasida 12 ga teng bo'lganligi uchun, berilgan sonni 12 ga ketma-ket bo'lish kerak bo'ladi. Bo'lish 8 lik sanoq sistemasida amalga oshiriladi. 15_8 ni 12_8 ga bo'lganda butun qismida 1 va qoldiqda 3, ya'ni 13_{10} – hosil

$$\begin{array}{r}
 175 \overline{) 12} \\
 \underline{12} 14 12 \\
 55 12 \text{ ①} \\
 \underline{50} 2 \\
 5 \text{ ②}
 \end{array}$$

bo'ladi. Bunga jadval orqali ishonch hosil qilish ham mumkin.

Ikkinchi misol: 175_8 sonini 10 lik sanoq sistemasidagi ko'rinishini topish talab qilingan bo'lsin. Xuddi yuqoridagidek 175_8 ni 12_8 ga ketma-ket bo'lamiz. Eslatib o'tamiz, bo'lish amali 8 sonlik sanoq sistemasida olib boriladi.

Umuman olganda, p sanoq sistemasida berilgan sonni q sanoq sistemasiga o'tkazish uchun, p sanoq sistemasidagi x_p soni q sanoq sistemasining asosiga, ya'ni q ga ketma-ket bo'lib, to butun qismida 0 hosil bo'lguncha davom ettirish kerak. Qoldiqlar o'ngdan chapga karab ketma-ket yozilsa, p sanoq sistemasida berilgan x_r sonining q sanoq sistemasidagi x_q ko'rinishi hosil bo'ladi. Bo'lish amali berilgan p sanoq sistemasida amalga oshiriladi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

1. Quyidagi sonlarni o'n asosli sanoq sistemasiga o'tkazing.

<i>Variantlar</i>	<i>$x_2 \rightarrow y_{10}$</i>	<i>$x_8 \rightarrow y_{10}$</i>	<i>$x_{16} \rightarrow y_{10}$</i>
1-variant	11010110	3261	4BA
2-variant	10101011	2512	1AF
3-variant	10110110	2674	AA4
4-variant	10001010	2713	B1A
5-variant	11011011	3054	9A4
6-variant	10011101	2751	AA8
7-variant	11010111	2517	2BA
8-variant	11100110	3012	2DA
9-variant	11100111	3232	1AC
10-variant	10101010	2677	8BA
11-variant	11111111	3134	EAC
12-variant	11111110	2513	CA1
13-variant	10110110	3171	B2A
14-variant	11110000	2737	1BA
15-variant	10111111	2615	AA9
16-variant	11111100	3146	31D
17-variant	10111011	2730	FA1
18-variant	11110011	3025	E2A
19-variant	11011111	2519	1AE
20-variant	11111010	3112	B1D
21-variant	10111000	2740	2AD
22-variant	11110101	2614	7BA
23-variant	11011000	3024	E2D
24-variant	11110001	2734	2B4
25-variant	11111011	2646	BA9
26-variant	11011110	2755	AAF
27-variant	11110100	2517	BA2
28-variant	11011100	3030	1A7
29-variant	10111110	2714	AB3

30-variant	11111101	2612	1F7
------------	----------	------	-----

2. Quyidagi kasr sonlarni oʻn asosli sanoq sistemasiga oʻtkazing.

Variantlar	$x_2 \rightarrow y_{10}$	$x_8 \rightarrow y_{10}$	$x_{16} \rightarrow y_{10}$
1-variant	11010,110	732,61	41,BA
2-variant	10101,011	625,12	B1,AF
3-variant	10110,110	526,74	9A,A4
4-variant	10001,010	727,13	8B,1A
5-variant	11011,011	630,54	A9,A4
6-variant	10011,101	527,51	7A,A8
7-variant	11010,111	725,17	B2,BA
8-variant	11100,110	630,12	C2,DA
9-variant	11100,111	532,32	D1,AC
10-variant	10101,010	726,77	F8,BA
11-variant	11111,111	631,34	6E,AC
12-variant	11111,110	525,13	8C,A1
13-variant	10110,110	731,71	7B,2A
14-variant	11110,011	627,34	E1,BA
15-variant	10111,101	526,15	9A,A9
16-variant	11111,101	731,46	F3,1D
17-variant	10111,011	627,35	7F,A1
18-variant	11110,011	530,25	8E,2A
19-variant	11011,111	725,15	C1,AE
20-variant	11111,010	631,12	9B,1D
21-variant	10111,011	527,40	F2,AD
22-variant	11110,101	726,14	C7,BA
23-variant	11011,101	630,24	8E,2D
24-variant	11110,001	527,34	E2,B4
25-variant	11111,011	726,47	8B,A9
26-variant	11011,110	627,55	6A,AF
27-variant	11110,100	525,16	7B,A2
28-variant	11011,100	730,30	E1,A7
29-variant	10111,110	627,14	8A,B3
30-variant	11111,101	526,12	C1,F7

2.3. Ikkili sanoq sistemasidan $q = 2^n$ asosli sanoq sistemasiga oʻtish.

Ikkili asosli sanoq sistemasidan $q = 2^n$ asosli sanoq sistemasiga oʻtishni qulay usuli boʻlib, bunday holda ikkili sonning butun va kasr qismlari mos ravishda chapga va oʻngga qarab n ta raqamlardan tashkil topgan guruhlariga ajratiladi. Agar birinchi chap va oxirgi oʻng tomondagi guruhlarida raqamlar soni n dan kam boʻlsa ular nollar bilan toʻldiriladi. Soʻngra ikkili sanoq sistemasidagi har bir guruh $q = 2^n$ sanoq sistemasidagi mos raqamlarga almashtiriladi.

Misollar.

1. 10111111100000011_2 sonni sakkiz asosli sanoq sistemasiga o'tkazing. Bunda $q = 8 = 2^3$, $n = 3$.

Yechish. Berilgan sonni chapdan o'ngga qarab uchta (triada) raqamlardan tashkil topgan guruxlarga ajratib olamiz. Agar chap tomondagi oxirgi guruxda raqamlar soni uchtdan kam bo'lsa uni nol soni bilan to'ldiramiz va har bir triadaga sakkizli sanoq sistemasidagi mos raqam bilan almashtiramiz.

$$10111111100000011_2 = \underbrace{010}_2 \underbrace{111}_7 \underbrace{111}_7 \underbrace{100}_4 \underbrace{000}_0 \underbrace{011}_3 = 277403_8$$

Javob. $10111111100000011_2 = 277403_8$

2. $11011011100011,11011_2$ sonini o'n oltili sanoq sistemasiga o'tkazing. Bunda $q = 16 = 2^4$, $n = 4$.

Yechish. Yuqoridagi usuldan foydalangan holda berilgan sonning butun qismini o'ngdan chapga qarab, kasr qismini esa chapdan o'ngga qarab $n = 4$ ta raqamlardan tashkil topgan tetralarga ajratib chiqamiz va ularga mos bo'lgan o'n oltili sanoq sistemasidagi raqamlar bilan almashtirib chiqamiz.

$$11011011100011,11011_2 = \underbrace{0011}_3 \underbrace{0110}_6 \underbrace{1110}_E \underbrace{0011}_3, \underbrace{1101}_D \underbrace{1000}_8 = 36E3,D8_{16}$$

Mustaqil yechish uchun mashqlar

1. Quyidagi ikki asosli sanoq sistemasidagi sonlarni sakkiz va o'n oltili asosli sanoq sistemasiga o'tkazing.

Variantlar	$x_2 \rightarrow y_8$	$x_2 \rightarrow y_{16}$
1-variant	1101011010101	110101101010110
2-variant	1010101100110	101010110011011
3-variant	1011011011011	101101101101110
4-variant	1000101011101	100010101110111
5-variant	1101101110101	110110111010110
6-variant	1001110100101	100111010010111
7-variant	1101011100110	110101110011010
8-variant	1110011011111	111001101111111
9-variant	1110011100110	111001110011010
10-variant	1010101011101	101010101110111
11-variant	1111111111010	111111111101010
12-variant	1111111011010	111111101101011
13-variant	1011011011101	101101101110110
14-variant	1111000011011	111100001101111
15-variant	1011111100101	101111110010110
16-variant	1111110011001	111111001100111

17-variant	1011101101010	101110110101010
18-variant	1111001111100	111100111110011
19-variant	1101111111010	110111111101010
20-variant	1111101011011	111110101101111
21-variant	1011100011101	101110001110110
22-variant	1111010101011	111101010101111
23-variant	1101100011101	110110001110110
24-variant	1111000111011	111100011101111
25-variant	1111101101010	111110110101010
26-variant	1101111010101	110111101010111
27-variant	1111010011100	111101001110010
28-variant	1101110011001	110111001100111
29-variant	1011111000010	101111100001010
30-variant	1111110101011	111111010101111

2. Quyidagi ikki asosli sanoq sistemasidagi sonlarni sakkiz va o‘n olti asosli sanoq sistemasiga o‘tkazing.

Variantlar	$x_2 \rightarrow y_8$	$x_2 \rightarrow y_{16}$
1-variant	11010110,10101	110101101,010110
2-variant	10101011,00110	101010110,011011
3-variant	10110110,11011	101101101,101110
4-variant	10001010,11101	100010101,110111
5-variant	11011011,10101	110110111,010110
6-variant	10011101,00101	100111010,010111
7-variant	11010111,00110	110101110,011010
8-variant	11100110,11111	111001101,111111
9-variant	11100111,00110	111001110,011010
10-variant	10101010,11101	101010101,110111
11-variant	11111111,11010	111111111,101010
12-variant	11111110,11010	111111101,101011
13-variant	10110110,11101	101101101,110110
14-variant	11110000,11011	111100001,101111
15-variant	10111111,00101	101111110,010110
16-variant	11111100,11001	111111001,100111
17-variant	10111011,01010	101110110,101010
18-variant	11110011,11100	111100111,110011
19-variant	11011111,11010	110111111,101010
20-variant	11111010,11011	111110101,101111
21-variant	10111000,11101	101110001,110110
22-variant	11110101,01011	111101010,101111
23-variant	11011000,11101	110110001,110110
24-variant	11110001,11011	111100011,101111
25-variant	11111011,01010	111110110,101010

26-variant	11011110,10101	110111101,010111
27-variant	11110100,11100	111101001,110010
28-variant	11011100,11001	110111001,100111
29-variant	10111110,00010	101111100,001010
30-variant	11111101,01011	111111010,101111

2.4. $q = 2^n$ asosli sanoq sistemasidagi sonni ikki asosli sanoq sistemasidagi songa o'tkazish.

$q = 2^n$ asosli sanoq sistemasidagi sonni ikki asosli sanoq sistemasidagi songa o'tkazish uchun berilgan sonning har bir raqamini n razryadli ikkili songa almashtirish kifoya.

Misollar.

1. Sakkiz asosli sanoq sistemasidagi 277403_8 sonni ikki asosli sanoq sistemasiga o'tkazing.

$$\text{Yechish. } 277403_8 = \frac{010}{2} \frac{111}{7} \frac{111}{7} \frac{100}{4} \frac{000}{0} \frac{011}{3} = 10111111100000011_2$$

2. O'n olti 36E3, D8₁₆ sonni ikki asosli sanoq sistemasidagi songa o'tkazing.

$$\text{Yechish. } 36E3, D8_{16} = \frac{0011}{3} \frac{0110}{6} \frac{1110}{E} \frac{0011}{3}, \frac{1101}{D} \frac{1000}{8} = 11011011100011, 11011_2$$

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi sonlarni ikki asosli sanoq sistemasiga o'tkazing.

Variantlar	$x_8 \rightarrow y_2$	$x_{16} \rightarrow y_2$	$x_8 \rightarrow y_2$	$x_{16} \rightarrow y_2$
1-variant	3261	4BA	732,61	41,BA
2-variant	2512	1AF	625,12	B1,AF
3-variant	2674	AA4	526,74	9A,A4
4-variant	2713	B1A	727,13	8B,1A
5-variant	3054	9A4	630,54	A9,A4
6-variant	2751	AA8	527,51	7A,A8
7-variant	2517	2BA	725,17	B2,BA
8-variant	3012	2DA	630,12	C2,DA
9-variant	3232	1AC	532,32	D1,AC
10-variant	2677	8BA	726,77	F8,BA
11-variant	3134	EAC	631,34	6E,AC
12-variant	2513	CA1	525,13	8C,A1
13-variant	3171	B2A	731,71	7B,2A
14-variant	2737	1BA	627,36	E1,BA
15-variant	2615	AA9	526,15	9A,A9
16-variant	3146	31D	731,46	F3,1D
17-variant	2730	FA1	627,35	7F,A1

18-variant	3025	E2A	530,25	8E,2A
19-variant	2517	1AE	725,16	C1,AE
20-variant	3112	B1D	631,12	9B,1D
21-variant	2740	2AD	527,40	F2,AD
22-variant	2614	7BA	726,14	C7,BA
23-variant	3024	E2D	630,24	8E,2D
24-variant	2734	2B4	527,34	E2,B4
25-variant	2648	BA9	726,46	8B,A9
26-variant	2755	AAF	627,55	6A,AF
27-variant	2514	BA2	525,15	7B,A2
28-variant	3030	1A7	730,30	E1,A7
29-variant	2714	AB3	627,14	8A,B3
30-variant	2612	1F7	526,12	C1,F7

3. Pozitsion sanoq sistemalari ustida arifmetik amallar.

3.1. Umumiy tushunchalar.

Pozitsion sanoq sistemalari ustida arifmetik amallar o'nli sanoq sistemasi ustida bajariladigan amallar bilan bir xil. Faqat amallarni qaysi sistemada bajarilayotganligini esdan chiqarmaslik kerak. Bu holda qo'shish va ko'paytirish jadvallaridan foydalanish mumkin.

Ikki asosli sanoq sistemasida qo'shish va ko'paytirish jadvallari:

a+b	0	1
0	0	1
1	1	10

a·b	0	1
0	0	0
1	0	1

Sakkiz asosli sanoq sistemasida qo'shish va ko'paytirish jadvallari:

3-jadval.

a+b	0	1	2	3	4	5	6	7	a*b	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	1	2	3	4	5	6	7	0	0	0	0	0	0	0	0	0
1	1	2	3	4	5	6	7	10	1	0	1	2	3	4	5	6	7
2	2	3	4	5	6	7	10	11	2	0	2	4	6	10	12	14	16
3	3	4	5	6	7	10	11	12	3	0	3	6	11	14	17	22	25
4	4	5	6	7	10	11	12	13	4	0	4	10	14	20	24	30	34
5	5	6	7	10	11	12	13	14	5	0	5	12	17	24	31	36	43
6	6	7	10	11	12	13	14	15	6	0	6	14	22	30	36	44	52
7	7	10	11	12	13	14	15	16	7	0	7	16	25	34	43	52	61

O'n oltili sanoq sistemasida qo'shish jadvali:

4-jadval

a+b	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
-----	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

0	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
1	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10
2	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11
3	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12
4	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13
5	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14
6	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15
7	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16
8	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17
9	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18
A	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
B	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A
C	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B
D	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C
E	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C	1D
F	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C	1D	1E

O‘n oltili sanoq sistemasida ko‘paytirish jadvali:

5 - jadval

a·b	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
1	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
2	0	2	4	6	8	A	C	E	10	12	14	16	18	1A	1C	1E
3	0	3	6	9	C	F	12	15	18	1B	1E	21	24	27	2A	2D
4	0	4	8	C	10	14	18	1C	20	24	28	2C	30	34	38	3C
5	0	5	A	F	14	19	1E	23	28	2D	32	37	3C	41	46	4B
6	0	6	C	12	18	1E	24	2A	30	36	3C	42	48	4E	54	5A
7	0	7	E	15	1C	23	2A	31	38	3F	46	4D	54	5B	62	69
8	0	8	10	18	20	28	30	38	40	48	50	58	60	68	70	78
9	0	9	12	1B	24	2D	36	3F	48	51	5A	63	6C	75	7E	87
A	0	A	14	1E	28	32	3C	46	50	5A	64	6E	78	82	8C	96
B	0	B	16	21	2C	37	42	4D	58	63	6E	79	84	8F	9A	A5
C	0	C	18	24	30	3C	48	54	60	6C	78	84	90	9C	A8	B4
D	0	D	1A	27	34	41	4E	5B	68	75	82	8F	9C	A9	B6	C3
E	0	E	1C	2A	38	46	54	62	70	7E	8C	9A	A8	B6	C4	D2
F	0	F	1E	2D	3C	4B	5A	69	78	87	96	A5	B4	C3	D2	E1

3.2. Qo‘shish.

Agar **q** asosli sanoq sistemasidagi ikki sonning yig‘indisi **q** dan katta bo‘lsa, natijaning katta raqami, ya‘ni xosil bo‘lgan ikki xonali sonning katta razryadi 1 ga teng bo‘ladi. SHunday qilib, ikkita sonni qo‘shganda keyingi razryadga (birlar xonasidan o‘nlar xonasiga, o‘nlar xonasidan yuzlar xonasiga va h.k.) faqat bir soni o‘tadi, qo‘shish natijasi esa **q** dan kichik bo‘ladi.

Amaliyotda **q** asosli sanoq sistemasidagi ikki sonni qo'shishda qo'shiluvchilar o'n asosli songa o'tkazib, ular o'n asosli sanoq sistemasida qo'shiladi va natija **q** asosli sanoq sistemasiga o'tkaziladi.

Masalan:

1. $1_2 + 1_2$ ($q=2$) ni hisoblang.

Ikkili sanoq sistemasida ikkita 1 ni bir biriga qo'shish uchun ular o'n asosli sanoq sistemasida qo'shiladi, ya'ni 2 ga teng bo'ladi. 2 ni o'n asosli sanoq sistemasiga o'tkzask u 10 ga teng bo'ladi. $1_2 + 1_2 = 2_{10} = 10_2$.

2. $3_8 + 2_8$ ($q=8$) ni hisoblang.

3 va 2 lar 8 asosli sanoq sistemasida bo'lganliklar uchun ular albatta 10 dan kichik sonlardir. SHuning uchun ular bevosita qo'shiladi. $3_{10} + 2_{10} = 5_{10}$. 5 soni 8 dan kichik bo'lganligi uchun 5 ning o'zi yoziladi. Demak, $3_8 + 2_8 = 5_{10}$

3. $6_8 + 7_8$ ($q=8$) ni hisoblang.

$6_8 + 7_8 = 6_{10} + 7_{10} = 13_{10}$. 13_{10} sonini $q=8$ asosli sanoq sistemasiga o'tkaziladi, u 15_8 ga teng. Demak, $6_8 + 7_8 = 15_8$.

4. $E_{16} + 9_{16}$ ($q=16$) ni hisoblang.

$E_{16} + 9_{16} = 14_{10} + 9_{10} = 23_{10} = 17_{16}$.

Misollar.

Sonlarni qo'shing.

1. $100110011_2 + 1101001_2 = 110011100_2$

$ \begin{array}{r} + \quad 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1_2 \\ \quad \quad 1 \ 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1_2 \\ \hline 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0_2 \end{array} $	<i>Izoh.</i> $1_2 + 1_2 = 1_{10} + 1_{10} = 2_{10} = 10_2$ ga teng. Birinci xonaga 0 yozilib, 1 soni keyingi razrayadga qo'shiladi.
--	---

2. $7264,56_8 + 567,476_8 = 10054,256_8$

$ \begin{array}{r} + \quad 7 \ 2 \ 6 \ 4, \ 5 \ 6 \ 0 \ 8 \\ \quad \quad 5 \ 6 \ 7, \ 4 \ 7 \ 6 \ 8 \\ \hline 1 \ 0 \ 0 \ 5 \ 4 \ 2 \ 5 \ 6 \ 8 \end{array} $	<i>Izoh.</i> $0_8 + 6_8 = 0_{10} + 6_{10} = 6_{10} = 6_8$ birinchi xonaga 6 yoziladi, $6_8 + 7_8 = 6_{10} + 7_{10} = 13_{10} = 15_8$ bo'lganligi uchun ikkinchi xonaga 5 yozilib, uchinchi xonaga 1 o'tkaziladi. So'ngra, $5_8 + 4_8 = 5_{10} + 4_{10} = 9_{10}$, $9_{10} + 1_{10} = 10_{10} = 12_8$, 2 yozilib keyingi razryadga 1 o'tkaziladi va h.k.
--	--

3. $3BA4,2C_{16} + 7FS,A2_{16} = 43A0,CE_{16}$

$ \begin{array}{r} + \quad 3 \ B \ A \ 4, \ 2 \ C_{16} \\ \quad \quad 7 \ F \ C, \ A \ 2_{16} \\ \hline 4 \ 3 \ A \ 0, \ C \ E_{16} \end{array} $	<i>Izoh.</i> $C_{16} + 2_{16} = 12_{10} + 2_{10} = 14_{10} = E_{16}$ birinchi xonaga E yoziladi, $2_{16} + A_{16} = 2_{10} + 10_{10} = 12_{10} = C_{16}$ bo'lganligi uchun ikkinchi xonaga C yoziladi, $4_{16} + S_{16} = 4_{10} + 12_{10} = 16_{10} = 10_{16}$ bo'lganligi uchun 0 yozilib keyingi razryadga 1 o'tkaziladi va h.k.
--	---

Mustaqil yechish uchun mashqlar

1. Quyidagi ikki asosli sanoq sistemasidagi sonlarni qo‘shing.

Variantlar	x_1	x_2
1-variant	110101101,010110	11010110,10101
2-variant	101010110,011011	10101011,00110
3-variant	101101101,101110	10110110,11011
4-variant	100010101,110111	10001010,11101
5-variant	110110111,010110	11011011,10101
6-variant	100111010,010111	10011101,00101
7-variant	110101110,011010	11010111,00110
8-variant	111001101,111111	11100110,11111
9-variant	111001110,011010	11100111,00110
10-variant	101010101,110111	10101010,11101
11-variant	111111111,101010	11111111,11010
12-variant	111111101,101011	11111110,11010
13-variant	101101101,110110	10110110,11101
14-variant	111100001,101111	11110000,11011
15-variant	101111110,010110	10111111,00101
16-variant	111111001,100111	11111100,11001
17-variant	101110110,101010	10111011,01010
18-variant	111100111,110011	11110011,11100
19-variant	110111111,101010	11011111,11010
20-variant	111110101,101111	11111010,11011
21-variant	101110001,110110	10111000,11101
22-variant	111101010,101111	11110101,01011
23-variant	110110001,110110	11011000,11101
24-variant	111100011,101111	11110001,11011
25-variant	111110110,101010	11111011,01010
26-variant	110111101,010111	11011110,10101
27-variant	111101001,110010	11110100,11100
28-variant	110111001,100111	11011100,11001
29-variant	101111100,001010	10111110,00010
30-variant	111111010,101111	11111101,01011

2. Quyidagi butun sonlarni ko‘rsatilgan sanoq sistemasida qo‘shing.

Variantlar	$x_8 + y_8$	$x_{16} + y_{16}$
1-variant	$3261_8 + 754_8$	$4BA_{16} + AB4_{16}$
2-variant	$2562_8 + 457_8$	$1AF_{16} + C3A_{16}$
3-variant	$2674_8 + 345_8$	$AA4_{16} + B6B_{16}$

4-variant	$2713_8 + 673_8$	$B1A_{16} + FA6_{16}$
5-variant	$3054_8 + 77_8$	$9A4_{16} + AAA_{16}$
6-variant	$2751_8 + 727_8$	$AA8_{16} + A1B_{16}$
7-variant	$2517_8 + 657_8$	$2BA_{16} + C0F_{16}$
8-variant	$3012_8 + 567_8$	$2DA_{16} + EA9_{16}$
9-variant	$3232_8 + 624_8$	$1AC_{16} + 5BC_{16}$
10-variant	$2677_8 + 657_8$	$8BA_{16} + 4FA_{16}$
11-variant	$3134_8 + 431_8$	$EAC_{16} + 3F9_{16}$
12-variant	$2513_8 + 246_8$	$CA1_{16} + 99F_{16}$
13-variant	$3171_8 + 457_8$	$B2A_{16} + 6BB_{16}$
14-variant	$2734_8 + 656_8$	$1BA_{16} + E09_{16}$
15-variant	$2615_8 + 457_8$	$AA9_{16} + 8C5_{16}$
16-variant	$3146_8 + 176_8$	$31D_{16} + 7CA_{16}$
17-variant	$2730_8 + 236_8$	$FA1_{16} + 9FF_{16}$
18-variant	$3025_8 + 576_8$	$E2A_{16} + CA3_{16}$
19-variant	$2519_8 + 567_8$	$1AE_{16} + D09_{16}$
20-variant	$3112_8 + 463_8$	$B1D_{16} + 8EA_{16}$
21-variant	$2740_8 + 457_8$	$2AD_{16} + E17_{16}$
22-variant	$2614_8 + 276_8$	$7BA_{16} + 5EE_{16}$
23-variant	$3024_8 + 646_8$	$E2D_{16} + AAB_{16}$
24-variant	$2734_8 + 447_8$	$2B4_{16} + C9D_{16}$
25-variant	$2642_8 + 356_8$	$BA9_{16} + 79F_{16}$
26-variant	$2755_8 + 376_8$	$AAF_{16} + 9A8_{16}$
27-variant	$2517_8 + 631_8$	$BA2_{16} + B6F_{16}$
28-variant	$3030_8 + 777_8$	$1A7_{16} + D99_{16}$
29-variant	$2714_8 + 653_8$	$AB5_{16} + CC5_{16}$
30-variant	$2612_8 + 745_8$	$1F7_{16} + DAB_{16}$

3. Quyidagi sonlarni ko'rsatilgan sanoq sistemasida qo'shing.

Variantlar	$x_8 + y_8$	$x_{16} + y_{16}$
1-variant	$732,61_8 + 65,67_8$	$41,BA_{16} + B,C25_{16}$
2-variant	$625,12_8 + 47,75_8$	$B1,AF_{16} + D,83A_{16}$
3-variant	$526,74_8 + 37,46_8$	$9A,A4_{16} + E,9E2_{16}$
4-variant	$727,13_8 + 23,46_8$	$8B,1A_{16} + C,6A8_{16}$
5-variant	$630,54_8 + 65,46_8$	$A9,A4_{16} + A,BB0_{16}$
6-variant	$527,51_8 + 32,47_8$	$7A,A8_{16} + F,4E3_{16}$
7-variant	$725,17_8 + 65,47_8$	$B2,BA_{16} + F,A81_{16}$
8-variant	$630,12_8 + 15,47_8$	$C2,DA_{16} + D,0EE_{16}$
9-variant	$532,32_8 + 35,66_8$	$D1,AC_{16} + E,B94_{16}$
10-variant	$726,77_8 + 65,34_8$	$F8,BA_{16} + D,CA9_{16}$
11-variant	$631,34_8 + 45,46_8$	$6E,AC_{16} + 9,BC9_{16}$
12-variant	$525,13_8 + 35,75_8$	$8C,A1_{16} + 8,EF3_{16}$

13-variant	$731,71_8 + 65,37_8$	$7B,2A_{16} + B,FF7_{16}$
14-variant	$627,34_8 + 56,43_8$	$E1,BA_{16} + D,AC8_{16}$
15-variant	$526,15_8 + 36,15_8$	$9A,A9_{16} + 9,3F7_{16}$
16-variant	$731,46_8 + 55,64_8$	$F3,1D_{16} + E,B8A_{16}$
17-variant	$627,35_8 + 66,44_8$	$7F,A1_{16} + 9,BE9_{16}$
18-variant	$530,25_8 + 77,77_8$	$8E,2A_{16} + 7,FD6_{16}$
19-variant	$725,19_8 + 66,45_8$	$C1,AE_{16} + F,B98_{16}$
20-variant	$631,12_8 + 37,66_8$	$9B,1D_{16} + C,E71_{16}$
21-variant	$527,40_8 + 77,07_8$	$F2,AD_{16} + F,9C9_{16}$
22-variant	$726,14_8 + 63,65_8$	$C7,BA_{16} + A,98E_{16}$
23-variant	$630,24_8 + 60,74_8$	$8E,2D_{16} + 8,FC5_{16}$
24-variant	$527,34_8 + 63,45_8$	$E2,B4_{16} + E,9C4_{16}$
25-variant	$726,46_8 + 64,72_8$	$8B,A9_{16} + 7,99A_{16}$
26-variant	$627,55_8 + 46,55_8$	$6A,AF_{16} + B,76C_{16}$
27-variant	$525,17_8 + 63,45_8$	$7B,A2_{16} + A,9F2_{16}$
28-variant	$730,30_8 + 77,57_8$	$E1,A7_{16} + E,BE6_{16}$
29-variant	$627,14_8 + 35,76_8$	$8A,B3_{16} + 8,9FE_{16}$
30-variant	$526,12_8 + 66,76_8$	$C1,F7_{16} + F,FE8_{16}$

3.3. Ayrish.

a sonidan **b** sonini ayrishda jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiq. Agar $a \geq b$ bo'lsa, **b** ustundan **a** ning qiymatini qidiramiz. **a** satrning eng chap ustunidagi son ayrish natijasiga teng bo'ladi. Masalan, 16 lik sanoq sistemasida F dan 6 ni ayrish uchun 6 soniga mos bo'lgan ustundan F sonini topamiz va bu satrning birinchi ustunidagi son 9 ga teng. Haqiqandan, $F_{16} - 6_{16} = 9_{16}$, chunki $9_{16} + 6_{16} = F_{16}$.

Agar $a < b$ bo'lsa, chap xonadagi (razryaddagi) sondan 1 qarz olish kerak bo'ladi. Bunday holda **b** ustundan **1a** sonini topamiz va shu songa mos keluvchi satrning chap tomonidagi birinchi soni ayrish natijasiga teng bo'ladi. Masalan, 16 lik sanoq sistemasida 9 dan D ni ayrish uchun D soniga mos bo'lgan ustundan 19 sonini topamiz va bu satrning birinchi ustunidagi son C ga teng. Haqiqandan, $16_{16} - F_{16} = C_{16}$.

Amaliyotda **a** sonidan **b** sonini ayrishda $a < b$ bo'lsa, **a** soniga uning o'ng tomonidagi katta razrda joylashgan sondan 1 qarz olib beriladi. Bu qarz ayrish amali bajarilayotgan sanoq sistemasining asosiga, ya'ni **q** ga teng bo'ladi. Ayrish o'n asosli sanoq sistemasida bajariladi va natija **q** asosli sanoq sistemasiga o'tkaziladi.

Masalan:

1. $10_2 - 1_2$ ($q=2$) ni hisoblang.

10 dan 1 ni ayrish uchun avvalo 0 dan 1 soni ayriladi. $0 < 1$ bo'lganligi uchun katta razryaddan 1 qarz olamiz u 2 ga teng bo'ladi. $2_{10} - 1_{10} = 1_{10} = 1_2$. Demak, $10_2 - 1_2 = 1_2$ ga teng.

2. $5_8 - 3_8$ ($q=8$) ni hisoblang.

$5 > 3$ bo'lganligi uchun ular bevosita ayriladi. $5_8 + 3_8 = 2_8$.

3. $15_8 - 7_8$ ($q=8$) ni hisoblang.

15 dan 7 ni ayrish uchun avvalo 5 dan 7 soni ayriladi. $5 < 7$ bo'lganligi uchun katta razryaddan 1 qarz olamiz u 8_{10} ga teng bo'ladi. $8_{10} + 5_{10} = 13_{10}$, so'ngra $13_{10} - 7_{10} = 6_{10} = 6_8$. Demak, $15_8 - 7_8 = 6_8$ ga teng.

4. $17_{16} - E_{16}$ ($q=16$) ni hisoblang.

17_{16} dan E_{16} ni ayrish uchun avvalo 7 dan E soni ayriladi. $7 < E$ bo'lganligi uchun katta razryaddan 1 qarz olamiz u 16_{10} ga teng bo'ladi. $16_{10} + 7_{10} = 23_{10}$, $E_{16} = 14_{10}$ bo'lganligi uchun, $23_{10} - 14_{10} = 9_{10} = 9_{16}$. Demak, $17_{16} - E_{16} = 9_{16}$ ga teng.

Misollar.

Sonlarni ayting.

$$1. 110011100_2 - 100110011_2 = 1101001_2$$

$$\begin{array}{r} 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 2 \\ - \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 2 \\ \hline 1 \ 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 2 \end{array}$$

Izoh. $0 < 1$ bo'lganligi uchun oldingi ikkinchi razryaddan 1 qarz olamiz. Ikkinchi razryadda ham 0 bo'lganligi uchun uchinchi razryaddan ikkinchi razryadga 1 qarz olamiz, u 2 ga teng bo'ladi. Ikkinchi razryaddan birinchi razryadga 1 qarz olamiz, u holda ikkinchi razryadda 1 soni birinchi razryadda esa 2 soni hosil bo'ladi. Demak, natijaning birinchi razryadiga $2 - 1 = 1$ bo'lganligi uchun 1 yoziladi. Ayiriluvchining ikkinchi razryadida 0 soni o'rnida 1 soni qolganligi uchun $1 - 1 = 0$. Demak, natijaning ikkinchi razryadiga 0 soni yoziladi va h.k.

$$2. 10054,256_8 - 7264,56_8 = 567,476_8$$

$$\begin{array}{r} - \ 1 \ 0 \ 0 \ 5 \ 4, \ 2 \ 5 \ 6 \ 8 \\ \quad 7 \ 2 \ 6 \ 4, \ 5 \ 6 \ 0 \ 8 \\ \hline 5 \ 6 \ 7, \ 4 \ 7 \ 6 \ 8 \end{array}$$

Izoh. $6_8 - 0_8 = 6_8$ bo'lganligi uchun natijaning birinchi razryadiga 6 yoziladi. $5_8 < 6_8$ bo'lganligi uchun ayiriluvchining uchinchi razryaddagi 2 sonidan 5 ga 1 qarz olib beramiz, u 8 ga teng bo'ladi. $8_{10} + 5_{10} = 13_{10}$ ga teng. $13_{10} - 6_{10} = 7_{10} = 7_8$. Natijaning ikkinchi razryadiga 7 yoziladi. Ayiriluvchining uchinchi razryadida 1 soni qolgan, unga 1 qarz olib beramiz va h.k.

$$3. 43A0,CE_{16} - 7FS,A2_{16} = 3BA4,2C_{16}$$

$$\begin{array}{r} - \ 4 \ 3 \ A \ 0, \ C \ E \ 16 \\ \quad 7 \ F \ C, \ A \ 2 \ 16 \\ \hline 3 \ B \ A \ 4, \ 2 \ C \ 16 \end{array}$$

